

**BOLA SHAXSINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK RIVOJLANISHIDA TARBIYA VA
TA'LIM METODLARINING UZVIYLIKI**

Omonova Farangiz Rustam qizi

Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

Murojaat uchun Tel: +998 94 720 1002 Gmail: ofarangiz802@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19118587>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bola shaxsining ijtimoiy-psixologik rivojlanishida ta'lim va tarbiya metodlarining uzviyligi dolzarb pedagogik muammo sifatida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Bola shaxsining shakllanish jarayoni uning yosh xususiyatlari, ruhiy-fiziologik imkoniyatlari hamda individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni bilan chambarchas bog'liqligi asoslab beriladi. Ilk yosh davridan boshlab kattalar bilan muloqot, o'yin faoliyati, taqlid va mustaqil harakatlar bolaning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, tafakkuri, emotsional barqarorligi va ijtimoiy faolligining rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim va tarbiya metodlarining o'zaro uyg'unligi shaxsning ijtimoiy moslashuvi, muloqot madaniyati va ijtimoiy rollarni egallash jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Maqolada mazkur jarayonning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati yoritilib, bola shaxsini har tomonlama kamol toptirishdagi pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, bolashaxsi, o'yin, pedagogika, shaxs, yosh, faoliyat, rivojlanish, bilim, ko'nikma, metod.

Abstract. This article provides a theoretical and scientific analysis of the integration of education and upbringing methods in the socio-psychological development of a child's personality as a pressing pedagogical issue. It substantiates that the formation process of a child's personality is closely linked to an educational process organized by taking into account age-specific characteristics, psycho-physiological capabilities, and individual abilities. From early childhood, interaction with adults, play activities, imitation, and independent actions serve as crucial factors in the child's acquisition of social experience, as well as the development of their thinking, emotional stability, and social activity. The harmony between teaching and upbringing methods facilitates the effective organization of a person's social adaptation, communication culture, and the process of acquiring social roles. The article highlights the theoretical foundations and practical significance of this process, analyzing the pedagogical conditions necessary for the comprehensive development of a child's personality.

Keywords: child personality, socio-psychological development, education and upbringing, integration, social adaptation, pedagogical methods, psychological characteristics.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически анализируется взаимосвязь методов обучения и воспитания в социально-психологическом развитии личности ребенка как актуальная педагогическая проблема. Обосновывается, что процесс формирования личности ребенка тесно связан с образовательно-воспитательным процессом, организованным с учетом возрастных особенностей, психофизиологических возможностей и индивидуальных способностей. Начиная с раннего возраста, общение со взрослыми, игровая деятельность, подражание и самостоятельные действия служат важным фактором в усвоении ребенком социального опыта, развитии его мышления,

эмоциональной устойчивости и социальной активности. Гармония методов обучения и воспитания способствует эффективной организации социальной адаптации личности, культуры общения и процесса освоения социальных ролей. В статье освещаются теоретические основы и практическая значимость данного процесса, а также анализируются педагогические условия всестороннего развития личности ребенка.

Ключевые слова: личность ребенка, социально-психологическое развитие, обучение и воспитание, преемственность, социальная адаптация, педагогические методы, психологические особенности.

Kirish

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, barkamol va raqobatbardosh avlodni voyaga yetkazish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu jarayonda ta'lim tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, tarbiya jarayonini ta'lim bilan uzviy integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki zamonaviy jamiyat sharoitida faqat bilimli emas, balki ijtimoiy faol, mustaqil fikrlaydigan, yuksak ma'naviy qadriyatlarga ega bo'lgan shaxsni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bola shaxsining ijtimoiy-psixologik rivojlanishi uning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyati, emotsional barqarorligi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari va kommunikativ madaniyati bilan belgilanadi. Mazkur jarayon biologik omillar bilan bir qatorda, ijtimoiy muhit, ta'lim va tarbiya ta'siri ostida shakllanadi. Psixologiya va pedagogika fanlarida shaxs rivojlanishining ijtimoiy omillarga bog'liqligi keng tadqiq etilgan.

Jumladan, Lev Vygotsky ta'lim jarayonida ijtimoiy muhit va muloqotning yetakchi rolini asoslab bergan bo'lsa, Jean Piaget bola tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini ilmiy jihatdan izohlab bergan. Tarbiya va ta'lim metodlarining uzviyligi konsepsiyasi shuni anglatadiki, bilim berish jarayoni shaxsning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy sifatlarini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq bo'lishi lozim.

Ta'lim metodlari faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki shaxsiy fazilatlarni rivojlantiruvchi, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmdir.

Ayniqsa, interfaol metodlar, hamkorlikda o'qitish, muammoli ta'lim, refleksiv yondashuv kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar bola shaxsining ijtimoiy-psixologik kamolotida muhim rol o'ynaydi. Globallashuv sharoitida axborot oqimining kuchayishi, ijtimoiy munosabatlar tizimining murakkablashuvi ta'lim va tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Shu bois, bola shaxsining ijtimoiy-psixologik rivojlanishida tarbiya va ta'lim metodlarining uzviyligini ilmiy asosda o'rganish, ularning samaradorligini oshirish mexanizmlarini aniqlash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Asosiy qism

Bugungi kun uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarni yanada takomillashtirish uchun kompyuter texnologiyasini ta'lim jarayonidagi o'rni, uning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy-tadqiqot misolida yoritish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish darajalarini yana bir bora ko'rib chiqishni talab etadi.

Respublikamizda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar ta'lim sohasida ham ma'lum yangiliklar, tubdan o'zgarishlar bo'lishini taqazo etadi.

Haqiqatdan ham, chuqur bilimli, keng dunyoqarashli komil shaxsni tarbiyalash masalasi pedogoglardan yangicha ishlash prinsiplarini amalga oshirishni talab qiladi va katta ma'suliyat yuklaydi. Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi. Ilk yoshdagi bolaning kattalar bilan muomalasining eng oddiy turlari unda taassurotlarga bo'lgan ehtiyojini rivojlantiradi, tasavvurlarini shakllantiradi. Yangi harakat usullarini egallab borgan sayin bolalarning faolligi oshib boradi. Biroq faollik darajasi, uning rivojlanishi irsiy jihatdan shart qilib qo'yilgan zaminga, taqlid qilishga ham bog'liq bo'ladi.

Hayotning dastlabki yillarida kattalar bilan muomala qilishni va buyumlar bilan ish olib borishni o'z ichiga oladigan yo'l-yo'riq tadqiqot faoliyati bolalar faoliyatining asosiy turlari bo'ladi. Tarbiyachilar bolalar bilan muomalada bo'lar ekanlar, ularni buyumlar dunyosiga olib kiradilar. Shunday yo'l bilan bolalar o'ziga xos buyumlar bilan bog'liq faoliyatni egallaydilar.

Bunda muomalaning o'zi bola uchun zarur ehtiyojga aylanadi.

Buyumlar bilan bog'liq faoliyatni tashkil etish oilada ham, maktabgacha ta'lim muassasasida ham bir va ikki yoshli bolalarni tarbiyalash vazifalaridan biri hisoblanadi, chunki bu faoliyatda barcha bilish jarayonlari, maqsadlari va xulq-atvor sabablari rivojlanadi. Bu faoliyatda bolalar tarbiyachilar rahbarligida buyumlarning xususiyatlari, ular bilan qilinadigan harakatlar to'g'risida dastlabki bilimlarni o'zlashtiradilar, bola ikki yarim yoshga to'lganda buyumlar bilan bog'liq faoliyat va muomala ancha yuqori rivojlanish darajasiga erishadi, o'yin va tasviriy faoliyatga o'tish uchun asos yaratiladi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'yin faoliyatining mazmuni xilma-xil bo'ladi va har tomonlama rivojlanish imkoniyatlari kengayadi.[1]

Ta'lim metodi zamonaviy darajada o'quv-tarbiyaviy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan pedagogik va o'quvchilarning o'zaro bog'liq faoliyat usullaridir (V.I. Zagazinskiy); ta'lim metodlari-o'quv jarayonining murakkab tarkibiy komponenti bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining barcha yo'nalishlarini yoritishga xizmat qiladi, ular o'rtasida ko'p sonli aloqa va bog'lanishlarni yuzaga keltiradi (G.I. Xukina). Ta'lim metodlari - tarixiy kategoriya hisoblanadi.

Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari xarakteri va ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi pedagogik jarayon maqsadi, mazmuni, vositalariga ta'sir qiladi. Ularning o'zgarishi bilan ta'lim metodlari ham o'zgaradi.

T. A. Ilina olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Yu. K. Babanskiyning tasnifini ma'qullagan va tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etgan: yangi bilimlarni berish metodlari (o'qituvchining so'zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruza); yangi bilimlar o'zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laboratoriya ishi, darslik va kitob bilan ishlash, o'yin, mashqlar; darsning har bir bosqichida foydalansa bo'ladigan texnik vositalar bilan ishlash metodi: mustaqil ish.

U. Amerikalik pedagog K. Kerr «ta'lim metodlari sohasidagi tub burilishlarni» to'rt bosqichga ajratadi. Kishilik jamiyatining dasdabki rivojlanish bosqichida bolalarni asosiy o'qituvchilari ota-onalar hisoblangan. Birinchi tub burilish ularning o'rniga professional o'qituvchilarning kelishi davri. Ikkinchi tub burilish og'zaki so'zni, nutqni yozuv bilan almashinuvi bilan bog'liq. Uchinchi tub burilish ta'limga bosma so'zning kiritilish davri.

To'rtinchisi ta'limni avtomatizatsiyalashtirish va kompyuterizatsiyalashtirish bilan bog'liq.

Ta'lim vositalari oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Oddiy vositalarga:og'zaki vositalar (darslik va boshqa matnlar) hamda oddiy ko'rish vositalari (real predmetlar, modellar, rasmlar) kiradi.

Murakkab vositalar esa mexanik ko'rish vositalari (kodoskop, diaproyektor), eshitish vositalari (proigrivatel, magnitofon, radio), audiovizual (ko'rish-eshitish: ovozli film, TV, video) hamda ta'lim jarayonini avtomatlashtiruvchi vositalar (multimediali kabinetlar, kompyuterlar, axborot tizimlari, telekommunikatsiya tarmog'i)ni o'z ichiga oladi.

Ta'lim metodlarini tanlash:

- o'quvchilarni tarbiyalash, rivojlantirish, ta'lim berish, ma'lumotli qilish umumiy maqsadlariga;

-o'quv predmeti va mavzu mazmuniga;

- aniq o'quv predmetini o'qitish metodikasi xususiyatlariga;

-aniq bir darsni maqsad va vazifasiga hamda mazmuniga;

- materialni o'rgatish uchun ajratilgan vaqtga;

-o'quvchilarni yosh xususiyatlariga hamda ularni bilish imkoniyatlari darajalariga va o'quvchilarni tayyorgarlik darajalariga;

- o'quv muassasasini moddiy,uslubiy ta'minlanganligiga;

-o'qituvchini xususiyat va imkoniyatlariga, nazariy va amaliy tayyorgarligi darajasiga, uslubiy, kasbiy mahoratiga, shaxsiy sifatlariga bog'liq.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bola shaxsining ijtimoiy-psixologik rivojlanishida ta'lim va tarbiya metodlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ta'lim jarayoni bolaga nafaqat bilim beradi, balki unda ijtimoiy intellekt, muloqot madaniyati va o'z-o'zini anglash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Tarbiya metodlarining to'g'ri tanlanishi esa bolaning jamiyatga moslashuvini (adaptatsiya) tezlashtirib, undagi ijobiy xulq-atvor normalarini mustahkamlaydi. Bu ikki jarayon uzviy bog'liqlikda olib borilgandagina, bola komil shaxs sifatida shakllana oladi.

Ta'lim metodlari va vositalarining evolyutsion taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, insoniyat uzoq yillar davomida axborotni uzatishning eng samarali va tezkor yo'llarini izlab kelgan. K. Kerr tomonidan ilgari surilgan to'rt bosqichli "tub burilishlar" nazariyasi shunchaki texnik o'zgarishlar emas, balki ta'limning mazmun-mohiyati va o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining tubdan yangilanishidir.

Bugungi kunda ta'lim vositalarining oddiy (an'anaviy) shakllardan murakkab (texnologik) tizimlarga o'tishi dars samaradorligini bir necha barobar oshirish imkonini bermogda. Biroq, zamonaviy multimedia va avtomatlashtirilgan tizimlar qanchalik mukammal bo'lmasin, ular ta'limning muvaffaqiyatini yakka o'zi ta'minlay olmaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ta'lim jarayonida tizimli, izchil va maqsadli qo'llanilishi bolalarda ijtimoiy faollikni oshirib, ularning ijtimoiy tajribani ongli ravishda o'zlashtirishiga imkon yaratadi.

Natijada, samarali muloqot, jamoada ishlash, muammoli vaziyatlarda konstruktiv qaror qabul qilish kabi muhim ijtimoiy ko'nikmalar shakllanib, bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi hamda ijtimoiy jihatdan moslashgan shaxs sifatida kamol topishi uchun mustahkam pedagogik asos yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'qitish texnologiyalari va ularning turlari. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-qitish-texnologiyalari-va-ularning-turlari/viewer>
2. Bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bola-shaxsining-rivojlanishida-tarbiyaning-rol-i/viewer>
3. Ta'lim metodlari. – Prezentatsiya materiali. – URL: <https://www.scribd.com/presentation/699083882/talim-metod>
4. Ta'lim metodlari va pedagogik texnologiyalar. – Elektron resurs. – URL: <https://portfolio.afu.uz/storage/documents/JCweW7iDSgm11tptRx3f2BRbtNAQiJx4UynI2htE.pdf>
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
7. Qodirov B. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.